



## THE ROLE OF LEARNING MANAGEMENT SYSTEMS IN LANGUAGE TEACHING (ON THE EXAMPLE OF CANVAS LMS)

**Madina Alimova**

Researcher at the Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15725857>

### ARTICLE INFO

Received: 18<sup>th</sup> June 2025

Accepted: 22<sup>nd</sup> June 2025

Online: 23<sup>rd</sup> June 2025

### KEYWORDS

Language education, Uzbek language, Canvas LMS, second language, method, multimedia tools.

### ABSTRACT

*This article examines the possibilities of using Canvas LMS in language teaching. The main functions such as organizing courses, creating interactive tasks, interacting with each other and monitoring the level of students' mastery are analyzed. In particular, the advantages of learning with Canvas LMS, such as flexibility, convenience and adaptability to various educational needs, are also highlighted.*

## РОЛЬ СИСТЕМ УПРАВЛЕНИЯ ОБУЧЕНИЕМ В ПРЕПОДАВАНИИ ЯЗЫКОВ (НА ПРИМЕРЕ CANVAS LMS)

**Мадина Алимова**

Научный сотрудник Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15725857>

### ARTICLE INFO

Received: 18<sup>th</sup> June 2025

Accepted: 22<sup>nd</sup> June 2025

Online: 23<sup>rd</sup> June 2025

### KEYWORDS

Языковое образование, узбекский язык, Canvas LMS, второй язык, метод, мультимедийные средства.

### ABSTRACT

*В данной статье рассматриваются возможности использования Canvas LMS в преподавании языков. Анализируются основные функции, такие как организация курсов, создание интерактивных заданий, взаимодействие друг с другом и контроль уровня освоения знаний студентами. В частности, также выделяются преимущества обучения с Canvas LMS, такие как гибкость, удобство и адаптивность к различным образовательным потребностям.*

## TIL O'QITISHDA TA'LIMNI BOSHQARISH TIZIMLARINING O'RNI (CANVAS LMS MISOLIDIDA)

**Madina Alimova**

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15725857>

### ARTICLE INFO

Received: 18<sup>th</sup> June 2025

Accepted: 22<sup>nd</sup> June 2025

Online: 23<sup>rd</sup> June 2025

### KEYWORDS

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada Canvas LMS vositasida tillarni o'qitish jarayonida foydalanish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Kurslarni tashkil etish, interaktiv topshiriqlar yaratish, o'zaro muloqot va*



*Til ta'limi, o'zbek tili, Canvas LMS, ikkinchi til, metod, multimedia vositalari.*

*tinglovchilarning o'zlashtirish darajasini monitoring qilish kabi asosiy funksiyalar tahlil qilinadi. Ayniqsa, Canvas LMS yordamida ta'lim olish, moslashuvchanlik, qulaylik va turli ta'limiy ehtiyojlarga moslasha olish kabi afzalliklari ham yoritilgan.*

O'zbekistonda yashovchi barcha fuqarolar respublikamizning davlat tilida erkin muloqot yurita olishlari, o'z fikrlarini og'zaki va yozma bayon qila olishlari respublikamiz aholisining hamjihatlik va do'stlikda yashashlari, birgalikda mehnat qilib, vatanimiz iqtisodini yanda yuksaltirishlarining muhim omillaridan biridir. Hozirgi kunda respublikamizda yashovchi turli millatlarga mansub fuqarolar o'zbek tilni faqat so'zlashuv-og'zaki muloqot vositasi sifatidagina bilishning kifoya qilmasligini, davlat tilida to'g'ri gapirish va to'g'ri yoza olishlari, turli mavzularda va ayniqsa o'z mutaxassisligi doirasida o'z fikrini erkin bayon eta olishlari hamda davlat tilida rasmiy ish yuritish malakalariga ega bo'lishlari zarurligini e'tirof etmoqdalar. O'zbek xalqining madaniyati va urf-odatlarini bilish, milliy-an'anaviy qadriyatlarimizni e'zozlash mamlakatimizda yashovchi boshqa millatlarning ma'naviy burchi va hayotiy ehtiyojiga aylanmoqda.<sup>1</sup> Shu sababli andragogik ta'limda o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'rganish istagida bo'lgan talabgorlarga mos metodik ta'minot tayyorlash zarurati mavjud. Til o'rganish istagida bo'lgan andragoglarga kasbiy faoliyatidan uzilmagan holda o'qish afzalroqdir. Globallashuv, raqamli texnologiyalar rivojlangan davr internet orqali ta'lim olish imkoniyatlarini berdi. Onlayn yoki aralash (gibrid) shaklda ta'lim olish innovatsion yondashuvlar hamda multimediali vositalar sababli qiziqarli va qulay jarayonga aylandi. Masofaviy ta'lim olish uchun ta'lim jarayonini boshqaruvchi tizimlar (learning management system LMS) muhim ahamiyat kasb etadi va jahon miqyosida faol qo'llanilmoqda. LMS ikkinchi tilni o'rgatishda nafaqat o'qituvchilar uchun qulay vosita, balki o'rganuvchilar uchun motivatsion va foydali platforma hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida o'quv jarayonlarini tashkil qilish yangi imkoniyatlar eshigini ochib, ta'lim sifatini yanada yuqori bosqichga olib chiqishi mumkin. Learning-o'qitish. LMS yordamida elektron kurs yoki o'quv materiallarining yagona bazasini yaratish mumkin. Bunday baza mavzu bo'yicha shakllantirilgan bilimlar omboridir. Management- boshqaruv. Ta'limni administrator (yoki kursni tashkil etuvchi o'qituvchi) boshqarib boradi. U o'quvchilar uchun kurs, topshiriq va testlarni belgilab beradi hamda uy vazifalarini bajarishni nazorat qilib boradi. System- electron tizim. LMS o'qituvchining o'rniga har bir o'quvchi berilgan topshiriqni yoki testni qancha vaqtda va qanday topshirgini tekshirib, qayd etib boradi. Hisobotlar orqali o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini kuzatib borishi ham mumkin.<sup>2</sup>

Jahonda ta'lim sohasi rivojlangan universitetlar BlackboardLearn, Moodle, Hemis LMS tizimlaridan foydalanishadi. Yurtimiz universitetlarida asosan hemis tizimi qo'llaniladi. Til kurslarini tashkil etish uchun Canvas LMSni taklif etamiz. Canvas AQShda ishlab chiqilgan ta'limni boshqarish tizimidir. Rus, ingliz, arab, ispan, xitoy, yapon, koreys va boshqa tillarda

<sup>1</sup>Muxitdinova X.S. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish metodikasi: o'quv qo'llanma. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023- 4-bet

<sup>2</sup> Fayziyeva M.R. "Informatika va axborot texnologiyalari" umumiy o'rta ta'lim maktabining 8-sinfi uchun darslik- Toshkent: "Tasvir", 2020- 62-bet



faoliyatni tashkil etish mumkin. "Canvas" ta'limni boshqarish tizimi ta'lim muassasasining elektron kurslarini joylash, o'rganuvchilarni ro'yxatdan o'tkazish, darsni masofaviy hamda jonli tarzda tashkil etish imkoniyatini beradigan yagona platformadir. Canvas – bu eng yangi axborot texnologiyalari asosida o'quv jarayonini tashkil etishga yordam beradigan ta'limni boshqarish tizimi. Canvas tizimi akademik va ta'lim muassasalari (maktablar, kollejlari, institutlar, universitetlar), shuningdek kompaniyalardagi o'quv bo'linmalari tomonidan qo'llanilishi mumkin. Ushbu dastur veb-brauzerlar yordamida, Android va iOS mobil qurilmalarida ishlatilishi mumkin. Canvas dasturiy tizimi ta'limni boshqarishning asosiy funksiyalarini, shu jumladan sinflarni boshqarish, tadqiqotlarni boshqarish (davlat idoralari, testlar), umumiy ish va o'quv materiallarini tizimlashtirish imkoniyatini beradi.

Canvas LMSni masofaviy, aralash (blended learning) va an'anaviy o'qitish uslublarida qo'llash mumkin. Tillarni o'qitishda ushbu tizimning afzalligi shundaki, u tinglab tushunish, o'qish, yozish va og'zaki nutq kabi asosiy til ko'nikmalarini kompleks rivojlantirishga yordam beradi. Berzin (2004) aralash ta'limni ikkita asosiy modelga ajratadi: flow model: Ta'lim faoliyati chiziqli, ketma-ket tartibda tashkil etiladi hamda o'quvchilar vazifalarni bajarishlari uchun m'lum muddat belgilanadi. Core –and spoke model-asosiy kurs (onlayn ta'lim taqdim etiladi) hamda asosiy kursni mustahkamlash uchun qo'shimcha materiallar taqdim etiladi. Canvas LMSning qulaylik tomonlaridan biri aralash ta'lim imkoniyatlarining mavjudligi. Canvas bilan ham masofaviy, ham an'anaviy ham gibrid shaklda ishlash mumkin. Xorijiy yoki ikkinchi til ta'limda autentik matn (haqiqiy, asl, original; til sohiblarining real nutqiy faoliyatidan olingan va tilni o'rganayotganlarga moslashtirilmagan matn), audiovizual vositalar (ko'riladigan va tinglanadigan axborotni taqdim etishga mo'ljallangan o'quv ko'rgazmali vositalar)ga asoslanib ta'lim berilishini hisobga olsak, Canvasni an'anaviy darsda resurslar ombori sifatida qo'llash mumkin. Xorijda MALL (Multimedia –Assisted Language Learning ) tilni multimedia vositalari yordamida o'qitish tushunchasi hozirda ham til ta'limida aktual. Dars jarayonini zamonaviylashtirish maqsadida Google Classroom yoki Microsoft Teams platformalarida, padlet onlayn doskasida muhokamalar tashkil etish, onlayn ta'lim boshqarish tizimlari imkoniyatlaridan til o'rganish maqsadida foydalanish mumkin. Canvasda multimedia vositalari orqali o'qitish imkoniyati keng. Unga video, audio, rasm, matn va boshqa interaktiv materiallarni yuklash mumkin. Bu esa tinglovchilarga til muhitiga chuqurroq kirib borishiga, ayniqsa tinglab tushunish va madaniy kontekstni anglashga yordam beradi. Canvas kursning tizimli tashkil etilishini kafolatlaydi. O'qituvchi darslarni mavzular bo'yicha modullarga ajratib, ketma-ketlik asosida tashkil etishi mumkin. Bu esa grammatik va leksik bilimlarni bosqichma-bosqich egallashda muhim ahamiyat kasb etadi. Interaktiv mashqlar kvizlar, testlar, moslashtirish (matching), yopiq va ochiq savollar yordamida bilimni muntazam baholab borish mumkin. Ayrim topshiriqlar avtomatik tarzda tekshiriladi, bu esa o'qituvchining vaqtini tejaydi. Canvas doimiy va sifatli fikr-mulohaza (feedback) beish imkonini beradi. O'qituvchi topshiriqlarga yozma, ovoqli yoki vizual izohlar qoldirishi mumkin. Bu esa tinglovchining o'rganish jarayonidagi faolligini oshirib, shaxsiy yondashuvni ta'minlaydi. Forumlar, guruhli loyihalar, chat va muhokama sahifalari yordamida tinglovchilar o'zaro muloqot qilishlari, mashq va topshiriqlarni birgalikda bajarishlari mumkin. Bu esa og'zaki nutq va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.



Canvas LMS yordamida ta'lim jarayoni nafaqat onlayn formatga o'tkaziladi, balki sifat jihatidan ham sezilarli darajada boyitiladi. Talabalar uchun doimiy ochiq dars materiallari, erkin vaqt rejimida o'rganish imkoniyati, individual fikr-mulohaza olish muhim ustunlik hisoblanadi. O'qituvchilar esa darsni samarali rejalashtirish, natijalarni kuzatish va baholashda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Xorij tajribasiga tayangan holda til va madaniyat bir biriga chambarchas bog'liq degan xulosaga keldik. Shu sababli har dars doirasida madaniyat sahifasiga e'tibor qaratdik. O'zga til vakillariga tilimizni o'rgatish bilan bir qatorda o'zbek madaniyatini tanishtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Darslarda til o'rganuvchilar bilan darslar virtual shaklda bo'lsa bu ishni qanday tashkil qilishimiz mumkin degan savol o'rinli. Bu borada bizga virtual muzeylarga sayohat qilish yordam beradi. Ma'lumki, virtual muzeylarning kommunikativ, madaniy-ma'rifiy, ta'limiyva motivatsion funksiyalari mavjud. Virtual muzeylardan virtual ekskursiya, tanlovlar va turli tadbirlar o'tkazish maqsadida foydalanish mumkin. "Virtual-ta'limiy muzey-muzeydagi san'at obyektlari, tarixiy asarlar, virtual to'plamlar va eksponatlarini namoyish etish hamda shu muhitda ta'lim jarayonini tashkil etishga mo'ljallangan veb sayt turidir"<sup>3</sup>. Til o'rgatish darslarida muzeylarga virtual sayohat qilish orqali xalqimizning boy madaniyati, tabiati, tarixi bilan tanishtirish samarali jarayondir. Masalan O'zbekiston tarixi davlat muzeyi, O'zbekiston amaliy san'at muzeyi, O'zbekiston Davlat tabiat muzeylariga sayohat uyushtirib madaniy bilimlarni oshirish mumkin bo'ladi. Teatr-darslar nafaqat tarbiyaviy, balki ta'limiy jihatdan ham nihoyatda samaraliligi bilan ajralib turadi. Keyingi vaqtlarda avvallari darsdan tashqari mashg'ulot sifatida o'tkaziladigan ushbu ish turlari dars maqomini olmoqda. Teatr-darslarning boshqa darslardan farqi talabalar professional ijrochilar bilan yaqindan tanishadilar, ularni katta sahnada ko'rib, ijrolarini eshitadilar. Teatr-darslarda talabalar qahramonlar o'zbek tilining jozibasini, adabiy tildagi ifoda shakllarini eshitganlari uchun ta'sir kuchli bo'ladi. Aynan aktyorlar nutqi orqali monologik nutqning qo'llanilishi va xususiyatlari (ifodaviyligi, ta'sirchanligi, mantiqiyiligi, sofligi, izchilligi) bilan tanishadilar, tilga bo'lgan qiziqishlari ortadi.<sup>4</sup> Yuqorida taklif etilgan virtual-ta'limiy muzeyga sayohat, spektakllarni tomosha qilish nutqni rivojlantirish bilan birga madaniy bilimlarni oshiradi. Bujarayonni amal oshirish uchun Canvas LMSdan samarali foydalanish mumkin. Muayyan bir tilda erkin so'zlashish imkoniyatiga ega bo'lish uchun 2000 ga yaqin so'zni bilish, yaxshi o'qish va tushunish uchun 4000-5000 atrofda lug'aviy birliklarni egallashi lozimligi mutaxassislar tomonidan e'tirof etilgan. Olimlarning fikriga ko'ra bir darsda leksik vazifasi va til bilish darajasiga qarab 7 tadan 20 tagacha yangi so'zni kiritish mumkin.

Yangi so'zlar bilan tanishish rasm, predmetni ko'rsatish yoki biror xatti-harakatni namoyish qilish yordamida amalga oshiriladi. Yorqin, rang-barang suratlar til o'rganuvchilarning e'tiborni tortadi va qiziqish uyg'otadi hamda ularning hissiy xotirasiga ta'sir ko'rsatib, so'zni yaxshi eslab qolishiga yordam beradi.

Leksik birliklarni semantizatsiya qilishning eng samarali usullari quyidagilardir:

1. Ko'rgazmali vositalardan (predmet, rasm, harakat) foydalansh (A1 darajada).

<sup>3</sup> Atamuratov R. Q. Virtual-ta'limiy muzey yaratish texnologiyasi (umumiy o'rta ta'lim maktablari misolida): Ped.fan.nom....dis.-Toshkent, 2022-16-bet

<sup>4</sup> Muxitdinova X.S. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish metodikasi. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. 70 b.



2. Sinonimlardan foydalanish.
3. Antonimlardan foydalanish
4. So'z yasash yordamida tushuntirish.
5. Kontekstdan foydalanish.
6. Tarjima usuli.

Leksik birliklarni tinglash va ko'rish orqali tanishga yordam beradigan mashqlar sirasiga quyidagilar kiradi:

- o'qituvchi aytgan predmetlarni ko'rsatish;
- o'qituvchi aytgan harakatlarni bajarish;
- tinglangan gapdagi so'zlar miqdorini aniqlash;
- so'zda tushib qoldirilgan harflar yoki harflar birikmalarini topish;
- o'zakka qara so'z ma'nosini topish;
- qatorda berilgan so'zlardan mavzuga oid so'zlarni tanlash va h.k.<sup>5</sup>

Yuqoridagi mashqlarni an'anviy, gibrid darslarda hamda masofaviy darslarda ham qo'llash yuqori samara beradi. Jarayonni tashkillashtirishda LMS imkoniyatlaridan unumli foydalanish mumkin. Tadqiqotlarga ko'ra, til o'rganuvchilar mashg'ulotning birinchi yarmida, taxminan 20 daqiqagacha bo'lgan vaqt davomida samarali ishlaydilar, keyin charchoq boshlanadi. O'qituvchi buni unutmasligi va yangi materialni mashg'ulotning birinchi yarmida kiritishi maqsadga muvofiq. Yangi materialga qayta ehtiyoj tug'ilsa, unga shu mashg'ulotning o'zida 15-20 daqiqadan keyin qaytish mumkin. Demak, har qanday yangi axborot unga ma'lum vaqtdan keyin qaytilsa, xotirada yaxshi saqlanib qoladi. Shu bois axborotni takrorlashning quyidagi sxemasini bilib olish muhim:

- 1) axborot ma'lum qilingan zahoti;
- 2) axborot ma'lum qilingandan 10-20 daqiqa o'tgach;
- 3) 8-9 soat o'tgach;
- 4) yana bir bor -24 soat o'tgach.

Bu ma'lumotlarni o'qituvchilar yangi material bilan ishlash, mustaqil bajariladigan vazifani tushuntirishda e'tiborga olishlari lozim.<sup>6</sup> Tinglovchilarga til o'rgatish vaqtida ham bu ma'lumotlarni inobatga olish lozim. Bir muddat o'tgandan keyin qayta takrorlash va topshiriqlarni mustahkamlash uchun Canvas LMSga yuklangan darsga kunning istalgan vaqtda murojaat qilish imkoniyati samarali natija beradi. Xulosa qilib aytganda o'zbek tilini o'zga til sifatida o'qitishga doir zamonaviy resurslar yaratish va ularni ta'lim jarayoniga ta'limni boshqarish tizimlari ya'ni LMS (Learning Management System) orqali tadbiiq etish ta'lim sifatini oshirishga ko'maklashadi deb o'ylaymiz.

### References:

1. Atamuratov R. Q. Virtual-ta'limiy muzye yaratish texnologiyasi (umumiy o'rta ta'lim maktablari misolida): Ped.fan.nom....dis.-Toshkent, 2022.

<sup>5</sup> G.A.Asilova. O'zbek tilini o'qitish metodikasi: darslik. – Toshkent, “PUBLISHING HIGH FUTURE” OK nashriyoti, 2024.–90 -92b

<sup>6</sup> G.A.Asilova. O'zbek tilini o'qitish metodikasi: darslik. – Toshkent, “PUBLISHING HIGH FUTURE” OK nashriyoti, 2024.–68 b



2. Fayziyeva M.R. "Informatika va axborot texnologiyalari" umumiy o'rta ta'lim maktabining 8-sinfi uchun darslik-Toshkent: "Tasvir", 2020.
3. G.Asilova. O'zbek tilini o'qitish metodikasi: darslik. – Toshkent, "PUBLISHING HIGH FUTURE" OK nashriyoti, 2024.
4. Muxitdinova X.S. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish metodikasi: o'quv qo'llanma. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.